

PEDAGOGIKA

UDC (UO‘K, УДК): 371.3:377.5

KASBIY TA‘LIMDA O‘QITISH TEXNOLOGIYASINI LOYIHALASH²⁶*Zaripov Lochin Rustamovich*

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti,
Ta‘lim sifatini nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

zaripov.lochin@mail.ru

ORCID ID: 0009-0008-3279-4024

ANNOTATSIYA

Maqolada professional yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyalarini loyihalashning nazariy va metodologik asoslari, ularning amaliy joriy etish bosqichlari hamda zamonaviy ta‘lim tizimidagi o‘rni atroficha ilmiy tahlil qilingan. Muallif talabalarda professional kompetensiyalarni shakllantirishning samarali mexanizmlarini, jumladan, o‘quv maqsadlarini aniq belgilash va didaktik jarayonni shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosida texnologiyalashtirish zaruratini asoslab beradi. Tadqiqotda modul asosidagi o‘qitish, mustaqil ishlar va amaliy mashg‘ulotlar talabalarning tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirishi hamda ularni professional faoliyatga tayyorgarlik darajasini oshirishi ta‘kidlangan. Shuningdek, maqolada pedagogik faoliyatni loyihalash, o‘quv materiallarini strukturaviy jihatdan tashkil etish hamda aniq belgilangan algoritm asosida maqsad qo‘yish va baholash bosqichlarini tashkil etish zaruriyati yoritilgan. Professional yo‘naltirilgan ta‘limni gumanizatsiyalash va talaba markazli interaktiv metodlarni keng joriy etish zamonaviy ta‘lim islohotlarining ustuvor yo‘nalishlari sifatida ko‘rsatib berilgan.

KALIT SO‘ZLAR

Kasbiy yo‘naltirilgan ta‘lim, o‘qitish texnologiyasi, pedagogik loyihalash, o‘quv maqsadlari, modulli ta‘lim, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv, texnologik kompetensiya.

Received: May 24, 2025**Accepted:** June 30, 2025**Available online:** September 3, 2025

²⁶**For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Zaripov L. Kasbiy ta‘limda o‘qitish texnologiyasini loyihalash. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 3(7) — B. 386-398.

DESIGNING TEACHING TECHNOLOGY IN PRACTICAL EDUCATION

Zaripov Lochin Rustamovich

Uzbekistan State World Languages University
Head of the Education Quality Control Department

Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

zaripov.lochin@mail.ru

ORCID ID: 0009-0008-3279-4024

ABSTRACT

The article presents a comprehensive scientific analysis of the theoretical and methodological foundations for designing professionally oriented teaching technologies, their stages of practical implementation, and their role in the modern education system. The author substantiates effective mechanisms for fostering students' professional competencies, including precise goal-setting and the technologization of the didactic process within a person-centered approach. The study highlights how modular learning, independent work, and practical exercises contribute to the development of students' critical and creative thinking, while also enhancing their readiness for professional activity. Furthermore, the article emphasizes the necessity of designing pedagogical activities, structuring educational materials, and organizing goal-setting and assessment in accordance with a clearly defined algorithm. The humanization of professionally oriented education and the widespread adoption of student-centered interactive methods are presented as key priorities in contemporary educational reforms.

KEY WORDS

Professionally oriented education, teaching technology, pedagogical design, learning objectives, modular education, person-centered approach, technological competence.

ПРОЕКТИРОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ОБУЧЕНИЯ В ПРОФЕССИОНАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Зарипов Лочин Рустамович

Узбекский государственный университет мировых языков,
Начальник отдела контроля качества образования
доктор педагогических наук (DSc), профессор

zaripov.lochin@mail.ru

ORCID ID: 0009-0008-3279-4024

АННОТАЦИЯ	КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА
<p>В статье представлен всесторонний научный анализ теоретических и методологических основ проектирования профессионально-ориентированных образовательных технологий, этапов их практической реализации и их роли в современной системе образования. Автор обосновывает эффективные механизмы формирования у студентов профессиональных компетенций, включая точную постановку целей обучения и технологизацию дидактического процесса в рамках лично-ориентированного подхода. В исследовании подчёркивается, что модульное обучение, самостоятельная работа и практические занятия способствуют развитию критического и творческого мышления студентов, а также повышают уровень их готовности к профессиональной деятельности. Кроме того, в статье акцентируется необходимость проектирования педагогической деятельности, структурирования учебного материала и организации этапов целеполагания и оценивания в соответствии с чётко определённым алгоритмом. Гуманизация профессионально-ориентированного образования и широкое внедрение студентоцентрированных интерактивных методов представлены как приоритетные направления современных образовательных реформ.</p>	<p>Профессионально-ориентированное обучение, технология обучения, педагогическое проектирование, учебные цели, модульное обучение, лично-ориентированный подход, технологическая компетенция.</p>

KIRISH

Uzluksiz ta'limning turli bo'g'inlarida o'quv-tarbiyaviy faoliyatning maqsad va vazifalari, mazmunining mohiyati, metodlari, vositalari va tashkiliy shakllariga bog'liq kasb-hunarga yo'naltirish muammolari umumta'lim maktablari va akademik litsey, professional ta'lim muassasalaridagi ta'lim uzluksizligini ta'minlash jarayonidagi o'quv tarbiya tizimi murakkab va ko'p tarmoqli istiqbolli tadqiqotlarni taqozo etadi.

Barcha kasblar uchun zarur va muhim bo'lgan shaxs xislatlari bor, bular- mehnatsevarlik, hamma kasb va mutaxassislikdagi mehnat ahliga nisbatan hurmat- ehtirom, mehnat qilish zarurligini tushunish va anglash, o'z ishini rejalashtirish va nazorat qila bilish, ish joyini to'g'ri tashkil qilish, ishda tartibli va intizomli bo'lish, irodaviylik, sabotlilik, topshiriqni bajarishning eng oqilona usulini tanlab ola bilish, materiallar hamda vaqtni tejash va shu kabilardir. Ana shu xislatlar va fazilatlarning hammasini bolalarda boshlang'ich sinfdan boshlab shakllantirish lozim.

V.A.Slastenin ta'kidlaganidek, *o'qituvchining kasbiy faoliyati sohasida dolzarb ilmiy, ijtimoiy-siyosiy ma'lumotlarning tobora ko'payib borishi bilan ularni qayta ishlash, saqlash va uzatishning eski usullari, ya'ni an'anaviy o'qitish texnologiyasi o'rtasida ziddiyat mavjud.* (Slastenin V.A., Isaev, I.F. 1997) Aynan shu ziddiyat, asosida tanqidiy fikrlash, muammolarni ko'rish va tahlil qilish, qaror qabul qilish, jamoada hamkorlik qilish qobiliyatlari yotuvchi shaxsiy-faoliyat yondashuvi ta'lim texnologiyasini joriy etish zaruratini keltirib chiqaradi.

ASOSIY QISM

Zamonaviy mutaxassisni o'qitish jarayoni oliy ta'lim muassasasida yakunlanmasligi, aksincha uzluksiz bo'lishi kerak. Insonni mustaqil ravishda bilim olishga, ushbu bilimlarni birlashtira olish va ularni yangi bilimlarni egallash uchun qo'llashga o'rgatish muhimdir. (Sharipov Sh. S., 2012, 89) Bunga talaba bilimlarni tayyor shaklda taqdim etilishiga odatlanib qoluvchi an'anaviy ta'lim tizimi orqali erisha olmaydi. Agar o'quv jarayonida turli xil o'qitish texnologiyalari qo'llanilsa, unda har bir talaba faol kognitiv faoliyatga jalb qilinadi, o'zgaruvchan hayotiy

vaziyatlarga moslashishni, tanqidiy fikrlashni o'rganadi, yangi g'oyalarni yaratishga qodir bo'ladi, qayerda va qay tarzda u egallagan bilimlar amaliyotda qo'llanilishi mumkinligini aniq biladi.

Har bir ta'lim texnologiyasi o'zining afzallik va kamchiliklariga, kuchli va zaif tomonlariga ega. Ijtimoiy-iqtisodiy soha sifatida ta'limning o'ziga xos xususiyatlari texnologiyalardan foydalanishga alohida talablar qo'yadi, chunki ularning (texnologiyalarning) ta'siri insonga qaratilgan. Shu munosabat bilan, ta'lim faoliyatini texnologiyalashtirish bilan bir qatorda, uni insonparvarlashtirish jarayoni ham muqarrar bo'lib, aynan shu tamoyil shaxsga yo'naltirilgan yondashuv doirasida tobora keng tarqalmoqda.

Respublikamizda faoliyat yuritayotgan pedagog olimlardan N.A.Muslimovning ta'kidlashicha bo'lajak mutaxassis kadrlarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash modeli quyidagi *(Yangi ijtimoiy bosqichga xos bo'lgan xususiyatlar asosida yuzaga kelgan faoliyat turlari; kasbiy talablari aniq ko'rsatiladigan faoliyat turlari; davlatning ijtimoiy-siyosiy tuzilmasi hamda uning ma'naviy-axloqiy tizimi mohiyatiga ko'ra tashkil etiluvchi faoliyat turlari)* uchta tarkibdan tashkil topadi deya ta'kidlagan. (Muslimov, N. A., 2007, 23)

N.A.Muslimov bo'lajak mutaxassis kadrlarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash modeliga quyidagicha ta'rif beradi – bo'lajak mutaxassis kadrlarni innovatsion kasbiy faoliyatga tayyorlash modeli – bu kasbiy faoliyatida yuzaga keladigan muammoli vaziyatlarni muvaffaqiyatli hal etishni ta'minlovchi, ma'lum pedagogik sifatlarni ta'riflovchi hamda kasb egasining mustaqil bilim olishi va o'zini rivojlantirishni aks ettiruvchi andoza hisoblanadi. (Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'rayev A.B., 2015, 65).

O.A.Qo'ysinovning fikricha *o'qitishning mohiyati talabalarning ehtiyojlari va qobiliyatlarini rivojlantirish emas, balki ilgarigidek o'quv fanlari bo'yicha asosan bilimlarni axborot-verbal tarzda yetkazish, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat bo'lib qolmoqda.* (Qo'ysinov O.A., 2008, 46) Oqibatda talabalarda axborotning haddan ziyod behuda jamg'arilayotganligi, ta'limning befoydaligi va uning haqiqatdan uzoqligi kabi fikrlar paydo bo'ladi. Talaba real

hayotdan uzoqlashib qolgandek, uning oldiga faqat ilgari kelgan axborotlarnigina o'zlashtirish maqsadi qo'yilgandek bo'lib qoladi.

Pedagogikaga oid zamonaviy adabiyotlarda pedagogik jarayon quyidagi o'zaro bog'liq bo'lgan komponentlar tizimidan iborat deb ta'kidlanadi: 1) faoliyatning maqsadlari; 2) ta'lim beruvchi; 3) ta'lim oluvchi; 4) faoliyat mazmuni; 5) faoliyat shakllari; 6) faoliyat vositalari va usullari; 7) faoliyat natijasi. (Zaripov L.R. 2023, 60)

Modulli ta'limda fan mazmunini o'zlashtirish uchta elementni o'z ichiga oladi:

- birinchisi, kursning asosiy masalalari bo'yicha umumlashtirilgan ma'lumot beruvchi muammoli va yo'naltiruvchi ma'ruzalarni o'qish. Fanlar bo'yicha ma'ruzalar talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan rivojlantiruvchi ta'lim tamoyillari asosida qurilgan;

- ikkinchisi - talabalarning mustaqil ishi - bu ko'rsatilgan adabiyotlarni o'qish, tegishli ma'ruzaning asosiy sxemasi bilan tanishish, berilgan topshiriqlarni bajarish va modulga kerakli yozuvlarni kiritish;

- uchinchisi - seminarlar va laboratoriya-amaliy mashg'ulotlar ma'ruzalar bilan birgalikda ishlab chiqiladi, ularning mazmuni yangi materialni o'rganish va muayyan amaliy ko'nikmalarni egallash bilan to'ldiriladi.

Bolaning kasbiy muhim xislatlarini barvaqt aniqlash esa keyinchalik unga o'z xususiyatlariga qarab kasbni to'g'ri tanlash, uni muvaffaqiyatli ravishda o'zlashtirish, mehnatda yuksak natijalarga erishish imkonini berishi mumkin.

Loyihalash pedagogning kasbiy faoliyati turi sifatida u tomonidan ishlab chiqilgan muayyan o'qitish texnologiyasi loyihasini – o'quv jarayoni doirasida joriy etiladigan pedagogik tizimni didaktik ifodalashni anglatadi. *O'qituvchining konstruktiv faoliyati o'quv materialini saralash, ishlab chiqish, ya'ni yaratilgan loyihani amaliyotga qo'llash uchun moddiy asos yaratish bilan bog'liqdir.* (Zaripov L.R., 2018, 94-100)

Kasbiy yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasi – ta'lim oluvchilarda ularning bo'lajak kasbiy faoliyati uchun muhim shaxs sifatlarini, shuningdek vazifasi bo'yicha funksional majburiyatlarni bajarishni ta'minlaydigan bilim, ko'nikma va

malakalarni shakllantira oladigan texnologiyadir. Buni texnologiya darslarida kasbga yo'naltirilgan ta'lim joriy etish misolida ham ko'rish mumkin. Umumiy o'rta ta'limda texnologiya o'quv fanini o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarda texnik-texnologik va operatsion bilim, ko'nikma, malakalarni rivojlantirish, kasb-hunar tanlash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida ijtimoiy munosabatlarga tayyorlashdan iborat. Mehnatga muhabbatni va ishlash istagini faqat mehnatda tarbiyalash mumkin. Shu boisdan ham texnologiya fanini kasbiy yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasini loyihalash yo'nalishlaridan biri amaliy ishlardir.

Izlanishlarimizning ko'rsatishicha, kasbiy yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarini loyihalashda o'qituvchining samarali algoritimli harakatlari quyidagilar hisoblanadi:

– o'qitishning tashxisli maqsadlarini aniqlash, kutilayotgan natijani o'lchamli ko'rsatkichlarda ifodalash;

– mutaxassisning bo'lg'usi kasbiy faoliyati kontekstida o'qitish mazmunini asoslash;

– o'quv materialining tuzilmasini, uning axborotli hajmini, shuningdek elementlari o'rtasidagi o'zaro aloqalar tizimini aniqlash;

– o'quv materialini o'zlashtirishning talab etilgan darajasini va o'quvchilarning boshlang'ich bilim darajasini aniqlash;

– o'qitishning jarayonli jihatlarini ishlab chiqish: ta'lim oluvchilarning biluv va amaliy topshiriqlar tizimi ko'rinishida o'zlashtirishga oid layoqatini tasavvur qilish;

– bu tajribani egallashning maxsus didaktik muolajalarini izlab topish, individual va jamoaviy o'quv faoliyatining tashkiliy shakli, metodi va vositalarini tanlash;

– o'zlashtirilgan tajribani yangi faoliyat sohasiga ko'chirish maqsadida «subyekt-subyekt» munosabatlari doirasida ta'lim oluvchilar bilan pedagogik o'zaro harakatni tashkil etish mantig'ini aniqlashtirish;

– dasturning o'zlashtirish sifatini nazorat qilish va baholash tizimini, shuningdek o'quv faoliyatini individual tuzatish (korreksiya) usullarini tanlash.

Taklif etilayotgan algoritmgga mos holda kasbiy yo'naltirilgan o'qitish texnologiyasini loyihalash asoslarini qarab chiqamiz.

Zamonaviy ta'lim sharoitida kasbga yo'naltirilgan ta'limni joriy etishda o'quv maqsadlarining quyilishi muhim ahamiyatga ega. O'quv maqsadlari o'quvchilar harakatida aniq ifodalanadigan natijalar orqali belgilanadi. (Bazarova S.D., 2006, 12)

Pedagogik adabiyotlarda va ilmiy ishlarda o'quv maqsadlari mazmun-mohiyati va qo'yilishi bo'yicha bir qancha ta'riflar va fikrlar bildirilgan.

O'quv maqsadlari - muayyan ta'lim-tarbiya jarayoni yakunida ta'lim oluvchi tomonidan o'zlashtirilishi, yangi hosil qilinishi lozim bo'lgan bilim, xatti-harakat bilan bog'liq bo'lgan amaliy topshiriqlarni uddalay olish mahorati, shaxsiy fazilatlar va xulqini belgilaydi. (Klarin M.V., 1995, 54)

O'quv maqsadlari ko'lamiga qarab uch xil turga ajratiladi:

1. yo'naltiruvchi o'quv maqsadi;
2. umumiy o'quv maqsadi;
3. aniq o'quv maqsadlari;

Yo'naltiruvchi o'quv maqsadi – ta'lim jarayonining ustuvor yo'nalishini ko'rsatadi. U ta'lim jarayoniga qo'yilgan umumiy talablarni aniqlaydi. Demak, kasb-hunar ta'limi bo'yicha ta'lim maqsadlarini belgilaydi.

Umumiy o'quv maqsadi – yo'naltiruvchi o'quv maqsadidan kelib chiqib, fanning o'quv maqsadlari belgilanadi. O'quv maqsadlari o'quvchilar ushbu fan bo'yicha egallashi kerak bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar haqida tasavvur berishi kerak.

Aniq o'quv maqsadlari – odatda o'qituvchi tomonidan ishlab chiqilishi lozim. Pedagogik adabiyotlarda aniq o'quv maqsadlari mohiyatiga ko'ra uch sohaga ajratilgan: 1) kognitiv, ya'ni nazariy bilimlarni o'zlashtirish bilan bog'liq o'quv maqsadlari sohasi; 2) psixomotorika, ya'ni amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishga qaratilgan o'quv maqsadlari sohasi; 3) affektiv, ya'ni xulq, o'zini tutish, atrof-muhitga va tevarak atrofida qilargaga munosabatlarning shakllanishi va qadriyatlarini o'zlashtirish bilan bog'liq o'quv maqsadlari sohasi. Nazariy mashg'ulotlarda

kognitiv soha bo'yicha bilimlarni, amaliy mashg'ulotlarda psixomotorik soha bo'yicha amaliy ko'nikmalarni egallashga e'tibor qaratiladi. Affektiv soha bo'yicha o'quv maqsadlarini belgilash bugungi kunda muhim ahamiyatga ega bo'lib, asosiy e'tibor o'quvchilarning kasbga qiziqishiga, mehnat qilishga intilishga va mas'uliyatni anglagan ravishda faoliyat ko'rsatishga qaratiladi. Demak, *o'quv maqsadlarining barcha sohalar bo'yicha aniq qo'yilishi ta'lim natijalariga kafolatli erishishni ta'minlaydi.* (Zaripov L. R., 2020, 89)

O'qitish texnologiyasi loyihalashning yaxlit didaktik jarayonining natijaviyligiga bog'liq bo'lgan birinchi va hal qiluvchi bosqichi – bu *maqsadlilik* bosqichidir. Bu o'qitish maqsadini pedagog tomonidan aniqlashdan iboratdir.

1. O'quv faoliyati orqali, masalan: “dars maqsadi – yog'ochga ishlov berish”, yoki “Dastlabki kasbga qiziqishga oid tashxis o'tkazish”.

2. Mavzu mazmuni orqali, masalan: “elektromagnit induksiya hodisasini o'rganish”, yoki “yog'ochning tuzilishi va turlari aniqlash ko'nikmalarini shakllantirish”.

3. O'qituvchi faoliyati orqali, masalan: “ichki yonuv dvigatelining ishlash prinsipi bilan tanishtirish”, yoki “duradgorlikda keng qo'llaniladigan yurtimizda o'suvchi daraxt turlari”.

4. O'quvchining intellektual, his-hayajonli, shaxsiy rivojlanishi holatidan kelib chiqqan holda, masalan: “daraxtlarni parvarish qiluvchi kasblar to'g'risida tushuncha”, yoki “texnik yechimlarning samaradorligini aniqlash mezonlari” va h.k. (Zaripov L.R., 2023, 76)

Maqsadlarni aniq ifodalashning keyingi muhim talablaridan biri tashxislashdir. O'quv faoliyati samarasini oshirish ta'lim oluvchilarning boshlang'ich bilim darajasiga bog'liq. Darajani aniqlash – bu o'lchashdir. Pedagogikada har qanday o'lchashni o'tkazish ob'ektiv pedagogik mezonlar tizimini ishlab chiqish va baholashning maxsus tizimini qo'llashga asoslanadi. Agar ularni ishlab chiqishda maqsadlar tashxislanuvchan tarzda berilmasa, ta'lim oluvchilarning tayyorgarlik sifatini aniq baholash mumkin bo'lmaydi, chunki uning (sifatning) o'zgarishini aniqlash va o'lchash mumkin. Barcha didaktik masalalar aniq ko'rinish(shakl)da

ifodalanmaguncha ularni ongli va anglab yetilgan yechish jarayonini tashkil etish imkoniyati bo'lmaydi.

Ta'kidlash lozimki, o'lchov o'tkazishdagi asosiy murakkablik u yoki bu o'quv materialida mujassamlashgan axborotlarning semantik birligini ajratishdan iboratdir. Shu boisdan o'quv fanlari (bo'limlar, modullar, mavzular) mazmuni axborotlari hajmini o'lchash uchun foydalaniladigan semantik birlik tushunchasini chegaralash muhim. Chegaralash sababi o'tkazilayotgan o'lchovlar maqsadlari bilan taqozalangan bo'ladi. U yoki bu o'quv fani dasturida ifodalangan axborotlarning semantik birligi deganda murakkab yoki sodda tushunchalar, shuningdek aniq ta'riflar, natijalar, qonunlar, qoidalar, voqealar, faktlar va hokazolar tushuniladi.

Mavzu mazmunining axborotli sig'imini o'lchash va aniq mashg'ulot maqsadi o'quvchilarga taklif etilayotgan o'quv materialining ruxsat etilgan darajasini aniqlash hisoblanadi.

O'qitish texnologiyasini loyihalashning navbatdagi bosqichi o'quv materiali mazmunini tuzilmalash hisoblanadi.

Mazmunni saralash natijalari o'z ifodasini o'quv dasturlari va rejalarida topadi. Biroq ularning mavjudligi o'qituvchining o'quv fani tuzilmasi ustida ijodiy ishlashni davom etirishni taqiqlamaydi. Bunda o'quv materialini tuzilmalash uchun tizimli yondashuv qo'l keladi, chunki didaktik tizim tuzilmasining o'zi birmuncha turg'un bo'lib, uning alohida elementlari o'rtasidagi bog'lanishlar fanlar mantig'i bilan o'quv predmetiga va o'qitish texnologiyasi qo'yilayotgan psixologik-pedagogik talablar bilan yetarlicha qat'iy aniqlangan bo'ladi.

Shunday qilib, kasbiy yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarini loyihalash amaliy didaktikaga oid muolajalarni ketma-ket va izchil amalga oshirishni taqozo etadi. Texnologiya fanida kasbiy yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari ta'lim oluvchilarda bo'lajak kasbiy faoliyati uchun muhim sanalgan shaxs sifatlarini, vazifasiga ko'ra funksional majburiyatlarni amalga oshirishni kafolatlaydigan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantira oladigan texnologiya hisoblanib, jarayonli metodik harakatlar tizimi va didaktik instrumentariydan iborat bo'ladi.

XULOSA

Zamonaviy ta'lim tizimida kasbiy yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalarini loyihalash – o'quvchilarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, shaxsiy fazilatlarni rivojlantirish va mehnatga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Maqsadlilik, o'quv mazmunining tuzilmalashuvi, metodik vositalarning izchilligi pedagogik jarayon samaradorligini ta'minlaydi. Modulli ta'lim, mustaqil ishlar va seminar mashg'ulotlari kasbiy yo'nalishga ega bilimlarni chuqur egallash imkonini beradi. Loyihalashda pedagogning konstruktiv faoliyati va didaktik tafakkuri asosiy o'rin tutadi. Shunday ekan, ushbu yondashuvni tizimli joriy etish orqali kasbiy ta'limda sifatli natijalarga erishish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Шарипов Ш.С. Ўқувчилар касбий ижодкорлиги узвийлигини таъминлашнинг назарияси ва амалиёти. Дисс. ... пед. фан. док. – Т., 2012. – 307 б.
2. Базарова С.Д. Олий таълимда касбий-йўналтирилган ўқитиш технологиялари. Монография. – Тошкент: «Фан ва технология» нашриёти, 2006. – 114 б.
3. Кларин М.В. Инновации в мировой педагогике обучение на основе исследований, игр, дискуссий. –Рига: НПЦ«Эксперимент», 1995. –176 с.
4. Зарипов Л.Р. Инновацион ёндашув асосида 5-7-синф ўқувчиларида технологик компетенцияларни шакллантириш методикаси. Дис. ... п.ф.ф.д. (PhD) – Т.: 2020. - 141 б.
5. Zaripov L.R. Kredit-modul tizimi asosida bo'lajak texnologiya o'qituvchilari kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish. Pedagogika fanlari doktori (DSc). Diss. -Т.:2023 у.-252 б.
6. Зарипов Л.Р. Умумий ўрта таълим мактабларида технологик тайёргарлик талқини. Педагогика журнали. 2018 йил. № 4. 94-100 б.
7. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари. Пед. фан. док ... дис. – Тошкент, – 2007. – 377 б.

8. Муслимов Н.А., Усмонбоева М.Х., Сайфуров Д.М., Тўраев А.Б. / Педагогик компетентлик ва креативлик асослари. – Т., 2015 й. – 120 б.
9. Қўйсинов О.А. Касб таълими йўналиши бакалавр ўқитувчиларини тайёрлашда мустақил таълимнинг илмий - методик асослари: Пед.фан.ном. дисс. - Тошкент: ТДПУ.: 2008 й. – 160 б.
10. Слостенин В.А. Педагогика: учебное пособие для студентов педагогических учебных заведений / В.А.Слостенин, И.Ф.Исаев, А.И.Мищенко, Е.Н.Шиянов. - М.: Школа-Пресс, 1997. -512 с.

REFERENCES

1. Sharipov, Sh. S. (2012). *The theory and practice of ensuring the integrity of students' professional creativity* (Doctoral dissertation in pedagogical sciences). Tashkent.
2. Bazarova, S. D. (2006). *Profession-oriented teaching technologies in higher education* (Monograph). Tashkent: Fan va texnologiya.
3. Klarin, M. V. (1995). *Innovations in world pedagogy: Learning based on research, games, and discussions*. Riga: NPC "Eksperiment".
4. Zaripov, L. R. (2020). *Methodology for the formation of technological competencies in students of grades 5–7 based on an innovative approach* (PhD dissertation). Tashkent.
5. Zaripov, L. R. (2023). *Improving the professional training of future technology teachers based on the credit-module system* (Doctor of pedagogical sciences dissertation). Tashkent.
6. Zaripov, L. R. (2018). *The interpretation of technological preparation in general secondary schools*. *Pedagogika Journal*, (4), 94–100.
7. Muslimov, N. A. (2007). *Theoretical and methodological foundations of the professional formation of vocational education teachers* (Doctoral dissertation in pedagogical sciences). Tashkent.

8. Muslimov, N. A., Usmonboeva, M. H., Sayfurov, D. M., & To‘rayev, A. B. (2015). *Foundations of pedagogical competence and creativity*. Tashkent.
9. Qo‘ysinov, O. A. (2008). *Scientific and methodological foundations of independent learning in training undergraduate vocational education teachers* (Candidate of pedagogical sciences dissertation). Tashkent: TSPU.
10. Slastenin, V. A., Isaev, I. F., Mishchenko, A. I., & Shiyanov, E. N. (1997). *Pedagogy: A textbook for students of pedagogical educational institutions*. Moscow: Shkola-Press.